

JAMIYAT MA'NAVIY YANGILANISHI JARAYONIDA MILLIY RAQS SAN'ATINIG O'RNI VA UNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

Nazarova Irodahon Zayniddinovna

Farg'ona davlat universiteti

San'atshunoslik fakulteti

“Musiqiy ta'lim va madaniyat” kafedrasida o'qituvchisi

Tel: +99890 1655263

Annotatsiya: Maqolada o'zbek milliy raqs san'ati boy madaniyatimizning ajralmas qismi: xalqimizning dunyoni his qilish jarayonida o'ziga hosligi va o'sib kelayotgan yosh avlod ongu shuuriga ezgulik va nafosat, estetik-ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rnida hamda ahamiyati beqiyosligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: raqs, san'at, an'analar, xoreografiya, meros, zamonaviylik, “o'g'lon bola”, “bachcha”, avlod-ajdodlarimiz, mumtoz, maqom raqslari, artist, maydon raqslari, tomoshalar.

O'zbek madaniyati taraqqiyotida raqs san'ati hamisha salmoqli o'rin egallab kelgan bo'lib rivojlanishdadir. Davlatimizning ma'naviy-ma'rifiy islohatlarida san'at ahlining faol ishtiroki va yoshlarini yurtga sodiq, barkamol avlod qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday ma'naviy yetuk kishlarni tarbiyalashda raqs san'atining roli beqiyosdir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida mehnatkashlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda muhim o'rin egallaydi. Ular shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy aktivligini oshirish jarayonini o'ziga xos vazifalar, ya'ni uzluksiz ta'lim berish, havaskorlik ijodiga jalb qilish va mazmunli dam olish, hordiq chiqarishni uyushtirish orqali olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 1997-yili 8-yanvardagi PF-1695-son “O'zbekistonda milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlantirish to'g'risida”gi farmoni bu sohadagi ishlarning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi. Farmonda milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish bo'yicha quyidagi:

- raqs san'atining tarixiy an'analarini va usullarini tiklash;
- avaylab-asrash hamda boyitish;



-millatimizning o‘ziga xos sharqona fazilatlarini boy ma’naviyatiga monand raqslarni targ‘ib etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

-milliy raqs yo‘nalishlari bo‘yicha uzoq muddatli, maqsadli dasturlar tayyorlash;

-raqs san‘atini xalqimizning yuksak ma’naviyatini va nozik didiga zid bo‘lgan, noo‘rin taqlidga asoslangan xatti-harakat va liboslar xurujidan saqlash;

-maxsus ta‘lim tizimini takomillashtirish;

-milliy raqs va xoreografiya san‘ati bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash;

-madaniyat va san‘at o‘quv yurtlari, raqs jamoalariga uslubiy-ijodiy yordam ko‘rsatish;

-malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni to‘laroq qondirish hamda bu soha tashkilotlarning moddiy negizini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan.¹

O‘zbek raqs san‘ati boy madaniyatimizning ajralmas qismi: xalqimizning dunyoni his qilish jarayonida o‘ziga hosligini aks ettirgan san‘at turlaridan biridir. Raqslardagi har bir harakat, nazokat mutanosibligi jilo, ko‘z qarashlari-raqs harakatlari unsurlari, faqat millatimizga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Ular o‘zbekning hayoti, yashash tarzi, zavqu-shavqi, orzu-umidi, dardu quvonchini ko‘rsatuvchi muxtasar bir sahna asari, ohang va ritmga javoban inson ruhi, yuragi yu vujudida yaralgan “aks-sado” dir.

Raqslar azaldan to‘yu marakalarda, bayramu tantanalarda, shodiyona damlarning korki sifatida ijro etib kelingan. Xalqimizning jon tomiridan paydo bo‘lgan bu san‘at turi bir vujud kabi mudom rivojlanishda bo‘lgan. U ustozlardan shogirdlarga o‘tib ijod etilgan, keyingi avlodga qisman yetib kelgan.

Raqs –insoniyat paydo bo‘lgan ilk davrlardayoq ijod etilgan. Jamiyatning mehnat jarayonlarini, afsonaviy xarakterdagi , harbiy-vatanparvarlik ruhidagi raqslarni ijro etib yurishgan. Bunda tabiat kuchiga tayanganlar. Ular o‘z fikrlarini bayon eta olmay, zarar yetkazmaslikni, qarg‘amaslikni, omadli ovni iltijo etganlar. Hozirgi davrgacha dunyoning ba’zi bir joylarida, masalan, Afrikada shunday raqslar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Маданият ва еиъат соҳасини янада ривожлантириш ва тақомиллаштиришга дойр чора- -тадбирлар тугрисида. “Халқ сузи” газетаси, 2017 йил 1 июнь



saqlanib qolgan. Sayoxatchilar, folklorshunoslar yozib qoldirganlari o‘sha davrdagi xalqning yashash tarzi, urf-odatlarini, aqidalari haqida so‘zlaydi.²

Mustaqillik yillarida yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida tadqiq etishga e‘tibor kuchaydi, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o‘tmishda yaratilgan madaniy-ma‘naviy merosni o‘rganish va targ‘ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo‘yildi.

Musulmonchilik davrida ham O‘zbekiston sarqadlarida turli taraqqiyot bosqichlarida paydo bo‘lgan raqslar, o‘yinlar bir-biriga ta‘sir ko‘rsatib, yonma-yon yashab kelgan. SHu bois shahar va qishloqlarda o‘tkazilgan to‘y, bayram va marakalardagi “Beshqarsak” kabi qadimiy o‘yinlar ham, “Katta o‘yin”, “Lazgi”, “Kema o‘yin”, “Ashshadaroz” singari katta umumlashmagan, ramziy timsollarga ega raqslarni ham, jangovar o‘yinlarni xam uchratish mumkin bo‘lgan.³

IX –XII asrlardagi Uyg‘onish davrida raqs san‘atida ham chinakam ko‘tarilish yuz bergan, ko‘pgina qadimiy raqslar tiklanib, Navro‘z, Mehrjon va Sada bayramlarida namoyish qilingan. Abul Fayz Bayxakiyning yozishicha, o‘sha davrda birgina Termiz shahrining o‘zida yuzlab san‘atkorlar bo‘lib, Amir Ma‘sudni kutib olish uchun Termezdan 300 dan ziyod san‘atkor Amudaryo bo‘yiga kelgan. Buxoro, Gurganj, Kesh va boshqa shaxarlarda ham raqsga e‘tibor bo‘lgan. Xorazmda Abul Abbos Ma‘mun hukumronligi davrida (1003-10017) raqs san‘ati yaxshi rivojlangan.

Raqs san‘ati, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar saltanatida ravnaq topgan. Unda xotin-qizlarning o‘rni katta bo‘lgan. Rang-baranglik, tarixiy qatlamlar raqsdan yaqqol ko‘zga tashlangan.

Olov atrofidagi o‘yinlar, Anaxita va Rustam timsollariga bag‘ishlangan o‘yinlar, maqom raqslari, "Arg‘ushtak" kabi raqslar shular jumlasidandir. "Munojot", "Tanavor", "Lazgi" mumtoz raqslari ham aynan shu davrda malakali ijrochilar dasturidan mustahkam o‘rin olgan. XV asrning 2-yarmi va XVI asr boshida Sayyid badr, Toxir chakka, Moxchuchuk, Maqsudali, Katta Moy, Kichik Moy laqabli raqs ustalari shuxrat qozondi. Bu davrda raqs san‘ati xalq raqsi va malakali raqs yo‘nmalishida rivojlandi.

Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklari vujudga kelgach, raqs san‘atida xam o‘ziga xos uslublar maydonga keldi. Bu davrda jaxolat, mutaassiblik kuchaygani sababli raqs san‘atida o‘smir bolalar va yigitlar yetakchilik qilgan.

² Сайфуллаева Д., Казакбаева З. Ўзбек рақс санъати тарихи ва рақс сахналаштириш сирлари. –Т.: Ворис нашриёти. МЧЖ. 2006. –Б. 6-7brt

³ L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001, 40 b.



Ayollar raqsi esa sozanda (Buxoro amirligi), xalfa (Xiva xonligi) va yallachi (Farg‘ona vodiysida) deb yuritilgan ayol san’atkorlardan iborat ixcham to‘dalarning teatrlashgan dasturlarida rivojlanib, ichkarilarda uyushtiriladigan ziyofat va bazmlarda ko‘rsatib kelingan. Erkaklarning yg‘inlarida raqqosalar xufiyona qatnashganlar.⁴

O‘lkamizning XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishi oqibatida yuzaga kelgan vaziyat mavjud muammolarni yanada og‘irlashtirdi. Bir tomondan xukumron xokimiyat xalq xuquqlarini cheklasa, o‘z o‘rnida maxalliy axoli har qanday madaniy yangiliklarni “begona” bilib, to‘siqlarni kuchaytirdi. Raqs san’ati xam ko‘p cheklovlarga ro‘para bo‘ldi.⁵

Mahalliy xalq ayollar ishtrok etmaydigan san’atlargagina xayirihox bo‘ldi. Bu davrgacha va XX asrning boshlariga qadar ayollar raqslarini ijro etuvchi mahsus yosh-o‘yinchi-erkaklar faoliyat olib borgan. Mavjud manbalar amir va xon saroylarida, katta hajimdagi adabiyot va san’at-she’riyat, musiqa, raqs guruhlari mavjud bo‘lganligini inkor etmaydi, ammo to‘ylarda, xalq sayillarida, ko‘cha tomoshalarida asosan erkak raqqoslar faoliyat olib borgan. 8-10 yoshdan boshlab 4-5 yil davomida ayollar raqs uslublarini va yurishini, xarakati va xolatini o‘rgangan raqqoslar Xorazm xonligida “o‘g‘lon bola”, Buxoro amirligida “bachcha”, deb atalgan bo‘lib, ular to‘y va bazmlarda maxoratli raqs namunalarini ijro eta olgan. Ko‘p xollarda bu raqqoslar ayollar singari xarakat va odatlarga o‘rganib qolganligi bois, haqorat va tana dashnomalarga chidashga majbur bo‘lgan. Bu raqqoslar xolatini, ichki, ruhiy kechinmalarini ham raqsda ifodalashga erisha olgan. Ular ayollar liboslarida, ayollarga xos pardoz-andozda, qoshlari terilgan xolda raqslar ijro etishgan. Shu bois goho tashqi qiyofadan ham, raqsidan ham ularni ayollardan farqlab bo‘lmagan. Iste’dodli rassom Karaxan ijodida mazkur raqqosalardan portretlar ishlangan bo‘lib, undagi yuz-qiyofalar yuqorida keltirilgan fikirlarni tasdiqlaydi.

Bugungi kun san’atshunosligida davr taqozasi yuzasidan tashkil etilgan erkak raqqoslarning faoliyati besamar ketmadi, deb o‘rganiladi. To‘g‘ri, bir taraflama mazkur raqqoslar faoliyati o‘sha vaqtdagi murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy raqs merosimiz keyingi davr vakillariga

⁴ E.Saitova, N. Abraykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari.”Fan va texnologiya”nashriyoti. Tokent 2015 y. 11-13betlar.

⁵ L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001, 42 b.



yetib kelishda, XX asrga kelib erkak va ayol raqslari farqlanishda, xarakter va holatlarini qayta tiklashda yordam bergan bo'lsada, mavjud jarayonlar bir talay muammolarni ham yuzaga keltirdiki, bu bugungi davr raqs san'atiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Ya'ni, keyingi davrlarda erkaklar raqsi borasida saqlangan salbiy fikrlar unutilmadi. Oradan asrlar o'tsada, o'zbek milliy erkaklar raqsi borasida yuzaga kelayotgan muommolar san'atshunos olimlar tomonidan xamon tadqiqot maydoni sifatida keng o'rganilib, kadrlar malakasidagi mavjud yetishmovchiliklar yuzaga kelayotganligi bot-bot ta'kidlanmoqda.⁶

Mustaqillik yillarida ma'naviy qadriyatlarimizning tiklanishi, o'zbek milliy raqs san'atini yangi bosqichga olib chiqishda, o'tgan ulug' ustozlarimizning ijodi va faoliyatini, ularning o'ziga xos va betakror ijrochilik mahoratini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. Xalqimizning badiiy-estetik madaniyati, jumladan, milliy raqs san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan har bir san'atkor hech shubhasiz, o'zi yashagan davr ruhini, muxlislarning estetik didi, ma'naviy ehtiyojlari va salohiyatini o'zida to'la mujassamlashtirgan, o'z asarlari bilan zamondoshlarining ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan.

XX asrda raqs san'ati Buxoro raqsi, Xorazm raqsi, Farg'ona raqsi yo'nalishida; zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan sahnaviy xalq raqsi sifatida: milliy raqs unsurlaridan foydalangan balet spektakllari tarzida rivojlanib keldi. Mazkur yo'nalishlarning har biri asr davomida bir necha tarixiy bosqichni bosib o'tib, o'z shakli tamoyili, mazmuniga ega bo'ldi. Bir qator davlat va xalq raqs jamoalari jahonga tanildi. Bunda Hamdamxon, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Gavhar Rahimova, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Karim Rahimov, Qodir Mo'minov, Ma'mura Ergasheva, Yulduz Ismashova, Shokir Ahmedov, Gavhar Matyoqubova, Rushana Sultonova, Dilafro'z Jabborova, Qizlarxon Do'stmuhamedova, Malika Ahmedova kabi raqs ustalarining xizmati katta.

Yoshlarning ma'naviy dunyo qarashini rivojlantirishda o'zbek milliy raqs san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shgan buyuk san'atkorlar hayoti va ijodini chukur o'rganish katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

⁶ Рахмонова М. Ўзбек театри тарихи. Тошкент. “Фан” 1968 й. 67-69 б.



O‘zbekiston Res‘ublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2020 yil 5 fevraldagi “Milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaroriga muvofiq bugungi kunda o‘zbek milliy raqs san‘atiga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi.

Mamlakatimizda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san'atini yanada yuksak mavqega ko‘tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy raqsimiz millat tarixini, ruhiyati, orzu-umidlari va armonlarini aks ettiradigan san'at namunasi hisoblanadi. Uning tarixini o‘rganish xalqning urf-odatlarini, an'analarni, buguni va kelajagini o‘rganish, tadqiq qilish demakdir. Akademiya ilmiy jamoasi sa'y-harakati milliy raqs millatning o‘zligini, qadim orzu-umidlarini aks ettirishini yoshlarga tushuntirish milliy raqslarimizni bebaho madaniy merosimiz, mamlakatimizning tashrif qog‘ozlaridan biri sifatida asrab-avaylashga qaratilgan. SHuningdek, o‘zbek raqs san'atini targ‘ib qilishga, iste'dodli talabalarning xorijdagi nufuzli oliy dargohlarda tahsil olishlariga, bu borada xalqaro aloqalarni kuchaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayni kunlarda O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida-Moskva davlat lingvistika universiteti bilan o‘zaro hamkorlik haqida shartnoma tayyorlanmoqda.

Zero, milliy raqs san'atining madaniy hayotimizdagi o‘rnini belgilash, uning yo‘qolib borayotgan turlarini tiklash va noyob namunalarni asrab-avaylash, yanada rivojlantirish, dunyo miqyosida tanitish, targ‘ib qilish va raqsshunoslarning ilmiy va ijodiy yo‘lini chukur o‘rganish eng ustuvor vazifalardan biridir.

Milliy raqs va xalq ijodiyotini rivojlantirish, yosh iste‘dod egalarini aniqlash maqsadida har yili M.Turg‘unboeva nomidagi respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish vazifa qilib belgilandi. Lo‘nda qilib aytganda, butun mamlakat bo‘yicha raqs ijodkorlarini birlashtirish, davlat va xalq ansambllari faoliyatini yo‘naltirish, raqs havaskorligi harakatini yanada kuchaytirish, yigitlar raqsini izga solish, an'anaviy raqs ijro uslublarini asrab-avaylash asosida yangidan yangi raqslar yaratish, unutilgan qadimiy raqslarni, harakatlar va holatlarni tiklash, raqs ta'limini yaxshilash, raqs tarixini o‘rganish, milliy raqslarni yozib olishning eng qulay uslubini ishlab chiqish va joriy qilish, raqs san‘ati tanqidi va targ‘ibotini yo‘lga qo‘yish, raqsshunoslar, raqs muallimlari va baletmeysterlarning baquvvat zahirasini vujudga keltirish kabi vazifalarni bajarish uchun qonuniy va tashkiliy asos yaratildi.

Bugun biz g‘urur bilan aytishimiz mumkinki, bizda dunyo folklori namunalari bilan bemalol bellasha oladigan qo‘shiq va raqslarimiz bor. Bilamizki, marosimlar,



yashash tarzimiz, ongimiz, fikrimiz, tilimiz, kuyimizu qo‘shig‘imiz hatto raqslarimizgacha barchasi aytilgan-aytilmagan, to‘qilgan-to‘qilmagan, yozilgan-yozilmagan folklordir. Bir necha yillardan beri bizning o‘zbek milliy raqslarimiz dunyoning Xalqaro festivallarida qatnashib yaxshi natijalarga erishib kelmoqdalar. Bugun yurtimizning qay xududida qanday tadbir, bayram, tantana-yu, marosimlar bo‘lmasin kuy-qo‘shiqsiz o‘tmaydi. Zero yurtboshimiz SH. M. Mirziyoev ta’kidlaganlaridek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Xavas qilsa arziydigon beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigon buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san’atimiz ham albatta bo‘ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.; “Ma’naviyat” 2008.
- 2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Madaniyat va san’at soxasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doyr chora- -tadbirlar to‘g‘risida. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil.
- 3.O‘.Shokirov, F.Ashrafiy, I.Shokirova. O‘zbekiston madaniyati namoyandalari. T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2001.
- 4.Karimova I. O‘zbek raqslari. T.: Cho‘lpon. 2003.
5. Karimova I. Uroki uzbekskoro tantsa. O‘qituvchi. T.1981.
- 6.Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. –T.: O‘qituvchi.1994.
7. Karabaev U. Etnokultura. –T.: Sharq. 2005. –S. 39 bet
- 8.L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001,42 bet.
9. R.Karimova, D.I.Sayfullayeva, O‘zbek ayollar yakka raqslari, Toshkent, 2007, 23b.
10. Gavhar Matyoqubova. Ofatijon «Lazgi».T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot. 1993.
11. O‘zbek musiqa tarixi. Tuzuvchi Solomonova.Toshkent.O‘qituvchi nashriyoti.1981 yil.5-10 betlar
- 12.<http://uza/uz/oz/politics/adabyet-va-sanat-madaniyatini-rivojlantirish-khal-imiz-mana-03-08-2017/>
13. Рахмонова М. Ўзбек театри тарихи. Тошкент. “Фан” 1968 й. 67-69 б.
14. E.Saitova, N. Abraykulova. Xoreografiya va raqs san’ati asoslari.”Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent 2015 y. 11-13betlar.

15. Sayfullaeva D., Kazakbaeva Z. O‘zbek raqs san’ati tarixi va raqs saxnalashtirish sirlari. –T.: Voris nashriyoti. MCHJ. 2006. –B. 6-7
16. L.Avdeyeva, O‘zbek milliy raqs tarixidan, Toshkent, 2001, 40 b.
17. Djalalova, N. (2023). YOSHARNING ESTETIK TAFAKKURINI TARBIYALASH VA YUKSAKTIRISHDA MUSIQIY MADANIYATNING O‘RNI. *Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения*, 2(4), 7-10.
18. Djalalova, N. (2023). PIANO PERFORMANCE AS A FACTOR THAT ACTIVATES STUDENTS’MUSICAL AND AESTHETIC WORLD VIEWS AND DEVELOPS MUSICAL CULTURE. *Science and innovation*, 2(B4), 339-342.
19. Djalalova, N. (2022). МУСИҚИЙ ВА ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B8), 478-481.
20. Abdumalikovna, Y. D. (2021). The Role and Importance of Culture and Art in The Development of Society. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 1-3.
21. Juraevna, A. S., Abdumalikovna, Y. D., & Xusanovna, D. N. (2021). MODERN SOCIAL AND PEDAGOGICAL FUNCTIONS OF MUSIC ART AND EDUCATION. *Journal of Ethics and Diversity in International Communication*, 1(1), 57-59.
22. Тешабаева, О. Н., & Юлдашева, Д. А. (2022). Ўзбекистонда банк хизматлари бозори бошқаруви ва ривожланишининг хусусиятлари. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(3), 91-97.
23. Sobirov, B., Yuldasheva, D., Iroda, N., & Laylo, T. (2022, February). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. In *Archive of Conferences* (pp. 53-56).
24. Achildiyeva, M., Khojimatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
25. Хожимаматов А. ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. “JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN”. JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE 249-253 bet.

26. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOYIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
27. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG ‘U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
28. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O ‘ZBEK SAN’ATINING ZABARDAST HOFIZI JO ‘RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
29. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
30. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O ‘ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
31. Namozova, D. T. (2021). MUSIQA DARSLARIDA O’QUVCHILARNI KREATIVLIK HAMDA ERKIN TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNI TASHKIL ETISH. *Scientific progress*, 2(2), 1313-1315.
32. Namozova, D. (2022). BO ‘LAJAK MUSIQA O ‘QITUVCHILARINING KREATIV KOMPETENTLIGINI MUSIQA TARIXI FANINI O ‘QITISH VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH. *Science and innovation*, 1(B6), 942-950.
33. Sultonov, A. (2022). MUSIQIY IDROKKA TA’SIR ETUVCHI TRANSFORMATSION TENDENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 314-323.
34. Абдисатторов, А. А. Ў. (2022). БАСТАКОРЛИК ИЖОДИДА МУСИҚА ФОЛЪКЛЮРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 602-605.
35. Abdusattorov, A. About Makom Melodies Adapted for Orchestra of Uzbek Folk Instruments. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 2(11), 28-30.
36. Murodova, D. (2021). Scientific And Theoretical Aspects of Musical Thinking. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(1), 196-199.

37. Murodova, D. (2021). THE CONCEPT OF MUSICAL THINKING AND ITS STAGES OF DEVELOPMENT. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 245-250.
38. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643 1-6
39. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 173-179
40. Xojimamatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage *BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT* ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023 162-166
41. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O‘ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O‘RNI VA AHAMIYATI *Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture* Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4384 11-14

Research Science and Innovation House